

**“TASDIQLAYMAN”**

Toshkent viloyati agroxizmatlar  
markazi xarid komissiyasi raisi

S.Isaqulov

“08” 06

2022 y.



**Toshkent viloyati agroxizmatlar markaziga tegishli 3 qavatli ma'muriy  
binoning 1-qavatini “in vitro” laboratoriya sharoitiga moslashtirish bo'yicha**

**ENG YAXSHI TAKLIFLARNI TANLASH HUJJATLARI**

**Toshkent viloyati – 2022 yil**

**Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi Toshkent viloyati agroxizmatlar markaziga tegishli 3 qavatli ma'muriy binoning 1-qavatini "in vitro" laboratoriya sharoitiga moslashtirish yuzasidan eng yaxshi takliflarni tanlash bo'yicha e'lon qiladi.**

**Xizmat nomi:** 3 qavatli ma'muriy binoning 1-qavatini "in vitro" laboratoriya sharoitiga moslashtirish.

**Tanlashni o'tkazish shakli:** Elektron shakl va ball usulida.

**Shartnomaning boshlang'ich bahosi:** 90 171 638 (to'qson million bir yuz yetmish bir ming olti yuz o'ttiz sakkiz) so'm.

**Tanlov hujjatlarni qabul qiladigan hamda tanlov o'tkaziladigan manzil:**  
<https://etender.uzex.uz/>

**Ishtirokchilar quyidagi mezonlarga amal qilgan holda tanlovda ishtirok etishlari mumkin:**

- Shartnomani bajarish uchun zarur texnikaviy, moliyaviy, moddiy, kadrlar resurslarining hamda boshqa resurslarning mavjudligi;
- shartnoma tuzish uchun qonuniy huquqqa egalik;
- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha qarzdorlikning mavjud emasligi;
- o'ziga nisbatan joriy etilgan bankrotlik tartib-taomillarining mavjud emasligi;
- insofsiz ijrochilarining yagona reestridda qayd etilmaganligi.

**Tanlov ishtirokchilariga talash bo'yicha xarid qilish qoidalariga doir tushuntirish yuzasidan ishtirokchilar bilan aloqada bo'ladigan shxs:** Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi Toshkent viloyati agroxizmatlar markazi direktori o'rinosi – Isaqulov Sunnatillo To'laganovich, tel: 99-860-80-97

**Takliflarni taqdim etish muddati boshlanadigan va tugaydigan sana:** Maxsus axborot portaliga lot joylashtirilgan kundan boshlab 7 (yetti) kalendar kuni davomiyligida belgilangan vaqtga qadar.

**Buyurtmachining yuridik manzili:** Toshkent viloyati, Yuqorichirchiq tumani, A.Yassaviy MFY, Sh.Rashidov ko'chasi, 1-uy.

**Tanlov hujjatlarini rasmiylashtirish talabi:**

- tanlov ishtirokchisi faqat bitta taklif berishga haqli;
- tanlov hujjatlarida tuzatishlarga (matn, so'z va raqamlarni bo'yash) yo'l qo'yilmaydi. Agarda hujjatlarda tuzatishlar aniqlansa ushbu tanlov hujjati komissiya tomonidan chetlashtiriladi;

- tanlash ishtirokchisi taqdim etilayotgan axborot va hujjatlarning haqiqiyligi va to'g'riliqi uchun javobgar bo'ladi.

Tanlovga taqdim etiladigan hujjatlar:

- tijorat taklifi;
- tanlash ishtirokchilari tomonidan korrupsiya ko'rinishlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ariza;
- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha qarzdorlikning mavjud emasligi to'g'risida ma'lumotnomasi;
- o'ziga nisbatan joriy etilgan bankrotlik tartib-taomillarining mavjud emasligi haqida ma'lumotnomasi;
- insofsiz ijrochilarining yagona reestrida qayd etilmaganligi to'g'risida ma'lumotnomasi;
- tashkilotning ro'yhatga olinganlik guvohnoma nushasi (tashkilot rahbari tomonidan muhr va imzo bilan tasdiqlangan bo'lishi lozim).

### **Takliflarni baholash me'zonlari va ko'rib chiqish tartibi:**

Ishtirokchilar qo'yilgan talablar uchun taqdim qilgan hujjatlariga ya'ni texnik qismining miqdoriy ko'rsatkichlariga va narx qismining miqdoriy ko'rsatkichlari uchun umumiyligi 100 ball to'plashlari mumkin.

Ishtirokchilar bilan hisob-kitob tartibi.

G'olib bilan hisob-kitob milliy valyuta (so'm)da amalga oshiriladi. Tanlov g'olibiga shartnomasi qiymati bir milliard so'mgacha bo'lsa 30%, undan yuqori bo'lgan taqdirda 15% (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 16 martdagagi 139-sonli qaroriga asosan) miqdorda oldindan to'lov o'tkazib beriladi. Qolgan mablag' g'olib loyiha tashkiloti tomonidan tanlovga qo'yilgan joriy ta'mirlash ishlarini o'z vaqtida tugatib bergandan keyin schet faktura va bajarilgan ish dalolatnomasi asosida o'tkazib beriladi.